**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ISABAYEVA GULXAYO FARXOD QIZI**

# MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK QISSALARIDA ONA OBRAZINING POETIK TAKOMILI
## (O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, I.Sultonning “Onaizorim”, G.Mardonovaning “Quyoshim – enam” qissalari misolida)

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**UO‘K**: **821.512.133.09-31**

# Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

# Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

# Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

**Isabayeva Gulxayo Farxod qizi**
Mustaqillik davri o‘zbek qissalarida ona obrazining poetik takomili (O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, I.Sultonning “Onaizorim”, G.Mardonovaning “Quyoshim – enam” qissalari misolida)..... 3

**Isabaeva Gulxayo Farxod kizi**

The poetic development of the mother figure in Uzbek novels of the independence period (With examples from U. Hoshimov’s “Such is Life” (“Dunyoning ishlari”), I. Sulton’s “My Mother” (“Onaizorim”), and G.Mardonova’s “My sun- My Mother” (“Quyoshim – enam”) ..... 25

**Исабаева Гулхаё Фарход кизи**

Поэтическое совершенство образа матери в узбекских повестях периода независимости (на примере повестей “Дела земные” У.Хошимова, “Матушка” И.Султона, ”Солнце мое – матушка” Г.Мардоновой). ..... 49

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**
List of published works
Список опубликованных работ..... 55

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ISABAYEVA GULXAYO FARXOD QIZI**

# MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK QISSALARIDA ONA OBRAZINING POETIK TAKOMILI
## (O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, I.Sultonning “Onaizorim”, G.Mardonovaning “Quyoshim – enam” qissalari misolida)

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2022.2.PhD/Fil2436 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.tsuull.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Yakubov Islamjon Axmedjanovich**<br>filologiya fanlari doktori, dotsent |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Meliyev Suvonqul**<br>filologiya fanlari doktori, professor |
| | **Ulug'ov Abdulla O'zbekovich**<br>filologiya fanlari nomzodi, professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 5 may soat $14^{00}$ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy t-ni, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (347 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy t-ni, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "21" 04 kuni tarqatildi.

(2025-yil "21" 04 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi)

**H.A. Dadaboyev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**Q.U.Pardayev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

**N.A.Jabborov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida qissa janrining poetik jihatdan yangilanishlar davrini boshdan kechirayotgani e’tirof etilmoqda. Qissa janri evolyutsion taraqqiyot tamoyillari, janriy qonuniyatlar negizida barqaror tusga kirib, turli mavzularni ifoda etish imkoniyatiga ko‘ra kengayib bormoqda. Qissalardagi xarakter va obrazlar, adabiy an’ana, ijodiy izdoshlik, milliylik, syujet, kompozitsion yaxlitlik, rivoya subyektlari, personajlar sistemasi, qahramon psixologiyasi, badiiy ifoda usullari, mavzu va g‘oya kabi dolzarb muammolar tadqiqi hamisha e’tibor markazida bo‘lgan. Real hayotni bera olishdagi janriy imkoniyatlari bo‘yicha salmoqli tadqiqotlar yuzaga kelgan. Har qanday asardagi maishiy hayotdan shaxs sifatida jamiyat hayotiga ko‘tarilib borgan badiiy obrazning shakllanishida ona timsoli yetakchi o‘rin tutar ekan, mavzuning ilk manbalarini o‘rganish ustuvor ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Dunyo adabiyotshunosligida qissalar syujeti, kompozitsiyasi, obrazlar olami, qahramonlar ruhiyatining dalillanishi poetik mahorat masalalarini o‘rganish anchayin kengroq. Zero, har qanday badiiy san’atning falsafiy-estetik qiyofasi poetika mohiyatida birlashadigan yagona adabiy mezon hisoblanadi. Badiiy asar formulasida poetika hodisasi tarixiy, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy tamoyillar negizida barqarorlashadigan alohida estetik qonuniyat ekanligi o‘z tasdig‘ini topdi. Bunday yo‘sindagi ishlar qissachilikning tadrijiy taraqqiyoti, rivojlanish bosqichlari, qiyosiy tipologiyasi, yozuvchi poetik mahorati kabi nazariy masalalarni oydinlashtirish imkonini bergan.

O‘zbek adabiyotshunosligida qissa poetikasi borasida bahs-munozarali ilmiy tortishuvlar ancha qizg‘in va turfaligi bilan ajralib turadi. Negaki, poetika har bir asar hujayralarini yagona markazga yo‘naltiradigan adabiy qonuniyatning tizimli moslashuvidir. Aynan, tizimlilik mohiyatida badiiy asar butun murakkabligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy adabiyotshunosligimizda tarixiy qissalar bilan bir qatorda, zamonaviy mavzudagi qissalar, jumladan, A.Qahhor, O.Yoqubov, P.Qodirov, X.Do‘stmuhammad, N.Eshonqul, U.Hamdam, L.Bo‘rixon, I.Sulton qissalari muayyan darajada o‘rganilgan. Mavjud tadqiqotlarda badiiy ifoda usullarining o‘ziga xosligi, tadrijiy takomili, poetik obraz va ramzlar mohiyati, xarakterlar olami, ijodkor mahorati masalalari tadqiq etilgan. Ayrim asarlar qardosh xalqlar, rus va jahon adabiyoti bilan qiyosiy tahlilga tortilgan. Mamlakatimiz mustaqilligi yillari hayotimizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy sohalaridagi o‘zgarish va yangilanishlarning tarkibiy qismi o‘laroq, yoshlar o‘rtasida badiiy adabiyot hamda adabiyotshunoslik ilmiga bo‘lgan e’tibor ham yanada yuksaldi. Yurtimizning boy tarixini, uning betakror madaniyatini va milliy qadriyatlarini keng targ‘ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun kerakli muhit va shart-sharoit yaratish zarurligi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ayniqsa, Ona va umuman, muqaddas ayol zotining inson hayoti va jamiyat rivojidagi o‘rni va roliga bo‘lgan e’tibor yanada yuksaldi. Bu bejiz bo‘lmay: “Biz yurtimizdagi har bir ayol timsolida, avvalo, buyuk zot – Ona siymosini ko‘ramiz. Zotan, ular biz uchun, avvalo, muqaddas ona, aziz Vatan, oila

timsoli, bitmas-tuganmas mehr, ezgulik va kuch-g‘ayrat manbaidir… Oila – bu mehr va baxt qo‘rg‘oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne’mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma’naviyat bor. Oilaviy baxt bu – eng ulug‘ saodatdir. Ayol baxtli bo‘lsa, oila va jamiyat ham, albatta, baxtli bo‘ladi”[1]. Binobarin, ijod ahli uchun hamisha ilhom manbayi bo‘lib kelayotgan Ona obrazining badiiy talqinlari tadrijini tadqiq etish, mualliflar ijodiy niyati badiiy tajassumini, obrazlar tizimi hamda milliy qadriyatlar, milliy ruhiyat, milliy qiyofalar talqinini yaxlitlikda ochib berish, turfa xil ijodkor qalamiga mansub asarlardagi muayyan bir muammo talqini orqali o‘zbek adabiyotining ayrim milliy o‘ziga xosliklarini ko‘rsatish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekiston yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida ona obrazining badiiy asardagi roli, o‘rni va tadrijiy takomili, milliy obraz timsolida umumbashariy mohiyat kasb etishi ko‘plab tadqiqotlar doirasida o‘rganilgan. Xususan, o‘zbek adabiyotida ona obrazi milliy, an’anaviy va o‘ziga xos qiyofada poetik ifodalanishi tadqiq etilgan. Ammo dissertatsiyada qo‘yilgan nazariy muammo yuzasidan maxsus ilmiy izlanish olib borilmaganligi, ayni mavzuni kengroq o‘rganishni taqozo etadi.

O‘tgan yillar davomida qissalar yaxlit tarzda janriy xususiyatlari, badiiyati bo‘yicha atroflicha tadqiq etilgan. Masalan, S.Ahmad, I.Sulton, M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, S.Mirvaliyev, U.Normatov, N.Shukurov, A.Rasulov, H.Karimov, O.Duysenbayev, U.Jo‘raqulov, N.Jabborov, B.Karimov, A.Ulug‘ov, I.Yoqubov, D.Xoldorov, M.Sultonova, U.Rasulova, U.Nosirov, G.Imomova, M.Imomkarimova, N.Tosheva, Y.Eshmatova, F.Burxonova, singari turli avlodga

[1] Мирзиёев Ш.М. Муқаддас она, азиз ватан, оила тимсоли, битмас-туганмас меҳр, эзгулик ва куч-ғайрат манбаи. Халқаро хотин-қизлар кунига бағишланган нутқи // Халқ сўзи, 2021 йил. – № 48 (7828).

mansub adabiyotshunoslarning maqolalari[2], ilmiy ishlari[3] va risolalari[4] shular jumlasidandir.

Jahon adabiyotshunosligida L.P.Potapov, N.L.Mirkushina, M.V.Meleksetyan, A.A.Xalaf, R.M.Shofakirova, Z.S.Kayumova, M.Arnaudov, R.Arnxeym, M.Berdyayev, L.S.Vigotskiy, kabi adabiyotshunos va estetlarining tadqiqotlarida ayol, ona obrazi badiiy talqini, obrazlar tizimida tutgan o‘rni maxsus tadqiq etilgan. Qolaversa, badiiy ijod psixologiyasi, ijodkor mahorati, badiiy obraz va uning tabiatini o‘rganish tamoyillari, yondashuv metodlari kabi masalalar tadqiq etilgan[5].

Badiiy asar ijodkor dunyoqarashi, milliy an’ana, makon va zamon, uzluksizlik singari kategorial tushunchalarga chambarchas bog‘liqligi uchun tadqiqotchining yondashuv yo‘sinlari ham shunga mutanosib tarzda yuzaga chiqadi. Chunki munaqqid obraz tasviridagi nainki adabiy an’ana va shajaraviy aloqadorlik, balki muallifning o‘z-o‘zini taftish etish jarayonlari, asar yozilayotgan vaqtdagi kayfiyat-hollari, xususan, Ona obrazi yaratilgan qissalarda yozuvchining o‘z marhum onasi mo‘tabar ruhi oldidagi qarzdorlik hislarini ham nazardan qochirmaslikka intiladi.

---

[2] Шарафиддинов О. Она // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1985. 5 март; Мирвалиев С. Она ҳақида қўшиқ // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1982. 3 март; Норматов У. Тақдирлар романи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1985. 27 ноябрь; Шукуров Н. Дунёнинг ишлари // Гулистон. – Тошкент, 1982. № 3. – Б. 16; Султонова М. Оила ва ёзувчи позицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. №5. – Б. 32.

[3] Улуғов А. Қиссачилигимиз қирралари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991; Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Адабиёт, 2021; Дуйсенбаев О. Ўткир Ҳошимов ижодида она образи. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011; Имомкаримова М. Ўткир Ҳошимов асарларида миллий қадриятлар талқини. Филол. фан. номз. … дисс. – Тошкент, 2004; Имомова Г. Типик миллий характер яратишда бадиий нутқнинг роли: Филол. фан. номз. … дисс. – Тошкент, 1994; Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Филол. фан. д-ри … дисс. – Тошкент, 2018; Каримов Б. XX аср ўзбек адабиётшунослигида талқин муаммоси (қодирийшунослик мисолида): Филол. фан. д-ри … дисс. – Тошкент, 2001; Тошева Н. Ҳозирги ўзбек насрида фольклорга оид воситаларнинг поэтик функцияси (Исажон Султон насри мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. … дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол. фан. д-ри … дисс.– Тошкент, 2020; Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадиий услуб муаммоси (Шойим Бўтаев ва Назар Эшонқул қиссалари мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. … дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Бурханова Ф. Муаллиф адабий-эстетик қарашлари ва ижодий параллелизм (Назар Эшонқул ва Улуғбек Ҳамдам ижоди мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. … дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Лутфиддинова Х. Ёзувчининг эстетик идеали ва аёллар образи (“Ўткан кунлар” ва “Кеча ва кундуз” романлари асосида). Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994; Эшматова Ю. Истиқлол даври ўзбек қиссачилигида аёл руҳиятининг бадиий талқини. Филол. фан. б. фалс. док. … дисс. – Тошкент, 2020.

[4] Саид Аҳмад. Ижод ва жасорат. (Ўткир Ҳошимов ҳақида). Йўқотганларим ва топганларим. Хотиралар. Адабий ўйлар. – Тошкент: Шарқ. – Б. 226–232; Носиров У. Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 76; Расулов А. Ардоқли адиб. – Тошкент: Шарқ, 2001; Каримов Ҳ. Ўткир Ҳошимов. – Тошкент: Маънавият, 1998.

[5] Потапов Л.П. Умай-божество древних тюрков // Тюркологический сборник, Восточная литература. – М., 1972; Миркушина Н.Л. Образ женщины в русской религиозный философии и культурной традиции конца XIX – начало XX века: Автореф. дисс. канд. философ. наук – Астрахань, 2014; Мелексетян М.В. Образ матери в русской поэзии XX века: А.Блок, А.Ахматова, А.Твардовский. Дисс. … канд. филол. наук. – М., 2009; Шофакирова Р.М. Образ женщины-матери в “Шахнаме” Фирдоуси. Дисс. … канд. филол. наук. – Душанбе, 2004; Каюмова З.С. Образ женщины в переводе “Тафсира Табари” и его отражение в произведениях персидско-таджикской поэзии X-XII веков. Дисс. … канд. филол. наук. – Душанбе, 2023; Халаф А.А. Образ женщины в Арабским исскустве // Вестник ВГУ. Серия филология и журналистика. 2012. №1; Арнаудов М. Психология литературного творчества. – М.: Прогресс, 1970; Арнхейм Р. Новые очерки по психологии искусства. – М.: Прометей, 1994; Бердяев Н. Самопознание. – М.: Книга, 1991; Выготский Л.С. Психология искусства. – М.: Феникс, 1998.

Umuman, yuqoridagi salmoqli tadqiqotlarning yutuqlari bizning kuzatishlarimiz uchun nazariy-metodologik asos vazifasini o‘tashini e’tirof etgan holda, ta’kidlash joizki, ularning hech birida mazkur tadqiqotda ko‘tarilgan mavzu monografik planda o‘rganilmagan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq “Jahon va o‘zbek adabiyotini qiyosiy-tipologik o‘rganishning umumnazariy muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, Isajon Sultonning “Onaizorim”, Guljahon Mardonovaning “Quyoshim – enam” qissalarida Ona obrazi yaratilishidagi mushtaraklik va o‘ziga xosliklarni o‘rganish, adiblarning Ona obrazini yaratishdagi yondashuvlari, tamoyillari, badiiy-estetik konsepsiyalari hamda poetik mahoratlarini tarixiy-qiyosiy va analitik yo‘sinda ilmiy asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ona obrazini badiiy tasvirlashda tarixiy-madaniy, ijtimoiy-estetik omillarning o‘rnini aniqlash;

obrazning umumpoetik sathdan individual badiiy talqin sathiga o‘tish jarayonlarini ko‘rsatish, natijada yakka obrazdan umumbashariy timsolga ko‘tarilib borishini ochish;

“Dunyoning ishlari”, “Onaizorim”, “Quyoshim – enam” qissalari kompozitsiyasida ona obrazining o‘rnini ko‘rsatish, ijodkor badiiy olami, so‘z qo‘llash mahorati, ruhoniy dunyosi, tafakkur tarzini aniqlashga doir nazariy umumlashmalar chiqarish;

ona obrazining qissa voqeligi va obrazlar tizimidagi poetik ifodasini ko‘rsatish, obrazning milliy xarakter xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqot obyekti** sifatida O‘zbekiston xalq yozuvchilari: O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, Isajon Sultonning “Onaizorim” hamda adiba Guljahon Mardonovaning “Quyoshim – enam” qissalari tanlandi.

**Tadqiqotning predmeti**ni mustaqillik davri o‘zbek qissalaridagi obrazlar tizimi, ona obrazining badiiy talqinlari, syujet, fabula, kompozitsiya tizimidagi funksional badiiy vazifasi, ijodkor poetik mahorati, o‘ziga xoslik va mushtaraklik masalalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda biografik, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, psixologik, analitik metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

hozirgi o‘zbek qissalarida ona obrazining poetik takomili, uning tarixiy-ma’rifiy asoslari, Qur’oni Karim oyatlari va Hadislarda kelgan axborotlarga tayanib dalillangan, ona obrazining xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyot namunalaridagi badiiy tadriji, umumiy va xususiy jihatlari ochib berilgan;

hozirgi o‘zbek qissalarida ona obrazining umumpoetik sathdan individual badiiy talqin sathiga o‘tishida realistik tasvir tamoyillarining o‘rni hamda biografik, tarixiy, ijtimoiy va psixologik omillarning poetik ulushi, o‘zbek onasi timsoli obraz sifatida umumbashariy miqyosga ko‘tarilib borishi asoslangan;

Ona obrazining qissa kompozitsiyasi sathidagi poetik funksiyasi yoritilgan, badiiy sarlavha, peyzaj, qistirma epizod, kiritma hikoyalarning qahramon ruhiyatini ochuvchi vosita sifatida kelishi isbotlangan;

Ona milliy xarakterning potensial asosi ekanligi dalillanib, qissalarda ona obrazining individual asoslari, poetik ifoda shakllari asoslanib, ona obrazi orqali uning psixologiyasida yuzaga kelgan ruhiy tebranishlar, qalb iztiroblari, o‘y-kechinmalari, ezgulikka undovchi obraz sifatidagi inson hayotidagi o‘rni kabi masalalar badiiy makon va hayot misolida dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

qissa janri va ona obrazining jahon hamda milliy adabiyotshunoslikda o‘rganilish tarixi ilmiy asoslangan;

mustaqillik davrida ona obrazining yangicha talqini O‘tkir Hoshimov, Isajon Sulton, Guljahon Mardonova ijodi o‘zbek qissachiligida yangi bosqichni boshlab bergani ochiqlangan;

ona obrazining psixologik dunyosini tasvirlashda qo‘llanilgan badiiy vositalar “Dunyoning ishlari”, “Onaizorim”, “Quyoshim – enam” qissalari orqali dalillangan;

badiiy asar obrazlar tizimida ona obrazining yetakchi o‘rin tutishi, uning asardagi harakatlantiruvchi va asarga maishiy, estetik, ma’naviy ruh berib turuvchi kuch ekani, tarbiyaviy ahamiyatini oshirishi kabi xususiyatlar tahlillarda ochib berilgani amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** nasriy asarlar tahlilida ona jahon va o‘zbek nazariyotchi olimlarining poetik qarashlari va zamonaviy adabiy jarayonda erishilgan eng ishonchli, nazariy jihatdan mukammal xulosalari asos qilib olinganligi, bu esa ularni qiyoslash va xulosa chiqarishga imkon berganligi, tadqiqot xulosalari va tavsiyalari amaliyotga tatbiq etilgani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati**. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan nazariy xulosalar mustaqillik davri o‘zbek qissalarida ona obrazining badiiy talqinlarini o‘rganish, keng ko‘lamda monografik tadqiq qilishda muhim nazariy ahamiyat kasb etishi, hozirgi adabiy jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy o‘quv yurtlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari uchun “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Zamonaviy adabiy jarayon”, “Adabiyot nazariyasi”, “Badiiy asar poetikasi” fanlari va o‘quv kurslari uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy majmualar tayyorlashda hamda ixtisoslik fanlari nazariy bazasini shakllantirishda amaliy vosita bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi. Badiiy asarning tarbiyaviy, o‘zini-o‘zi baholovchilik funksiyalarini hamda hayotiyligini ochishda tayyor tahliliy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mustaqillik davri o‘zbek qissalarida ona obrazining poetik takomili (O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, I.Sultonning “Onaizorim”, G.Mardonovaning “Quyoshim – enam” qissalari misolida) muammosini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek adabiyotida ona obrazi genezisi va yangilanish tamoyillariga doir tahliliy fikrlar hamda “Dunyoning ishlari”, “Onaizorim”, “Quyoshim – enam”

qissalarida onalar obrazi talqini, ona psixologiyasining yoritilishiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 “Oʻzbek adabiyotining koʻp tilli (oʻzbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 25-martdagi 04/01-699-son). Natijada yozuvchilar tomonidan onalar obrazi talqinining teran va ishonarli tasvirlanishida qoʻllanilayotgan ichki monolog, tush, xotira-xayol, ramziy obrazli tasvir elementlarining keng ifoda etilganiga oid materiallar bilan boyitilgan;

zamonaviy oʻzbek qissanavislari Oʻtkir Hoshimov, Isajon Sulton va Guljahon Mardonova qissalarida ona obrazi tasvirida xarakter va milliylik ifodasi hamda qissalar kompozitsiyasi, shuningdek, obraz poetik takomili tadqiq etilgan oʻrinlardan hamda ona obrazining psixologik dunyosini oʻrganishda qoʻllanilgan peyzaj, ruhiyat tasviriga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida 2017–2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 – “Oʻzbek adabiyoti tarixi” koʻp jildlik monografiyani (7-jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 25-martdagi 04/01-702-son). Natijada mustaqillik davridagi ona obrazining yangicha talqini Oʻtkir Hoshimov, Isajon Sulton va Guljahon Mardonova ijodi oʻzbek adabiyotida yangi bosqichni boshlab berganini ilmiy jihatdan aniqlashda asos boʻlgan;

oʻzbek va dunyo adabiyotshunosligida qissa janri takomili va ona obrazining oʻrganilish tarixini yoritish; mustaqillik davri oʻzbek qissachiligida yaratilgan onalar obrazini yoritishda yozuvchilarning badiiy mahoratini koʻrsatish; ona ruhiyati va qalb kechinmalarining chuqur tasviriy vositalarini aniqlash; Oʻtkir Hoshimov, Isajon Sulton va Guljahon Mardonova qissalarida ona obrazi tasvirida sadoqat, oriyat, fidoyilik kabi qadriyatlarning yoritilishida mualliflar mahoratini dalillashdagi qarashlarga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston tarixi” telekanali “Hamma uchun” koʻrsatuvining oʻzbek qissachiligiga bagʻishlangan sonining tayyorlanishida foydalanilgan (Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston tarixi” telekanalining 2024-yil 7-fevraldagi 02-28-188-sonli ma’lumotnomasi). Natijada koʻrsatuv ilmiy-nazariy ma’lumotlar bilan boyitilib, ularning ilmiy-ma’rifiy saviyasi oshgan.

mustaqillik davri oʻzbek qissalarida ona obrazining umumpoetik sathdan individual badiiy talqin sathiga oʻtishida realistik tasvir tamoyillarining oʻrni hamda biografik, tarixiy, ijtimoiy va psixologik omillarning poetik ulushi, oʻzbek onasi timsoli obraz sifatida umumbashariy miqyosga koʻtarilib borishiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Kinoteatr” telekanalida efirga uzatilgan “Birgalikda koʻramiz” koʻrsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Dunyo boʻylab” telekanalining 2024-yil 27-fevraldagi 03-14-45-sonli ma’lumotnomasi). Natijada Ona milliy xarakterning potensial asosi ekanligi dalillangan ma’lumotlar,

onaning inson hayotidagi o‘rni badiiy makon va hayot misolidagi faktlar bilan ko‘rsatuv ilmiy saviyasi oshishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi**. Dissertatsiya natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy maqola nashr etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan bo‘lib, umumiy hajmi 144 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e’lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ona obrazining adabiy-estetik omillari, tadrijiy takomili”** deb nomlanib, 1.1 paragrafida ***“Obraz takomilida tarixiy-madaniy, ijtimoiy-estetik manbalarning o‘rni”*** o‘rganilgan. Epik tafakkur tarixida an’anaviy obrazlar silsilasi, ularning badiiy tadriji va poetik takomili tarixiy poetika kontekstida tadqiq qilinarkan, unda mif, folklor, mumtoz adabiyot va zamonaviy o‘zbek nasri namunalari tayanch obyekt sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Agar so‘z qissa janriga xos obrazlar tizimi haqida borishi hisobga olinsa, an’anaviy obrazlarning genezisi hamda tarixiy asosi yanada olis o‘tmishga qarab siljishi oydinlashadi. Negaki, zamonaviy qissalar payg‘ambarlar, Qur’oni Karim va xalq qissalarining vorisi o‘laroq, tarixiylik va an’anaviylikni o‘zida aks ettiradi. Ilk qissalar epik tafakkur tizimining yadro janri sifatida bashariyat tarixidagi ideal shaxslarning hayotini badiiy aks ettirishi bilan muhim ahamiyatga ega. Adabiyotshunos A’zamxon Qozixo‘ja “Qissa janrining xususiyatlari” maqolasida qissa janrining kelib chiqishiga doir fikrlarni bildiradi. “Qissa janri spetsifikatsiyasiga nazar tashlar ekanmiz, aynan ilohiy mohiyatga yaqinlashib kelgan qissalar janrning yorqin namunasi sifatida ko‘zga tashlanishini kuzatamiz”[6], – deb yozadi.

Qissa bayonidan maqsad inson ekanligi, uning bosh obrazi janr tarixida foks hodisa o‘laroq poetik ma’no kasb etadi. Shu ma’noda, adabiy-tarixiy jarayon namunalari misolida muayyan obrazning badiiy tadriji, poetik takomilini tahlilga tortishda uning janriga xos xususiyatlar muhim sanaladi. Bundan tashqari, obraz takomilida diniy-ma’rifiy, mifologik, adabiy-estetik, tarixiy va ijtimoiy manbalarning o‘rni ham beqiyos. Mana shularni e’tiborga olib, mustaqillik davri

[6] Қозихўжа А. Гар ортуқ сўз дедим... – Тошкент: Nurafshon business, 2021. – Б. 163.

oʻzbek qissalari misolida ona obrazining poetik takomilini tadqiq etish masala mohiyatini bor-boʻyicha kuzatishga, umumlashma nazariy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Epik tafakkur tarixida ona timsoli oshiq-maʼshuqa-raqib, yetim bola singari obrazlar qatorida davrdan davrga, ijodkordan ijodkorga, asardan asarga qarab oʻzgarib, yangicha qiyofa kasb etishi, avvalo, ijod qonuniyati, yozuvchi mahorati bilan belgilanadi. Adabiyot tarixida ona timsolining folklor, mumtoz adabiyot va zamonaviy nasrda turli-tuman obrazlari yaratilgan boʻlib, birinchisidan ikkinchisiga oʻtganda oʻzida anʼana va novatorlik xususiyatlarini namoyon qiladi. Masalan, onaning mehribon, oʻgay, tutingan, rad etilgan, yolgʻiz obrazlari umumiylikka ega boʻlsa, keyinchalik ushbu obraz maishiy va ijtimoiylashishi natijasida oʻziga xos xususiyatlarni aks ettirgan. Shu oʻrinda aytish kerakki, badiiy asarlarda turli-tuman shaklda talqin qilingan ona obrazining tarixiy va poetik asoslari ilohiy axborot Qurʼoni Karim hamda Hadislardan toʻyinadi. Umuman olganda, zamonaviy oʻzbek qissalarida ona obrazining poetik takomili va tarixiy-nazariy asosi hamda tadrij yoʻlini quyidagicha tasniflash mumkin: 1.“Qurʼoni Karim” qissalari, hadisi shariflar. 2. Mif, afsona va asotirlar. 3. Xalq ogʻzaki ijodi. 4. Qadim turkiy toshbitiklar. 5. Sharq adabiyotining mumtoz namunalari. 6. XX-XXI asrlar zamonaviy oʻzbek va jahon adabiyotidagi tajribalar.

Avvalo, ushbu tasnif zamonaviy oʻzbek qissalarida ona obrazining badiiy tadrijini xronologik sathda tahlil qilish imkonini beradi. Qurʼoni Karim oyatlari va Hadislarda ona obrazining maʼrifiy va tarixiy asoslari namuna oʻlaroq, iʼjoz maqomida bayon qilingan. Shuningdek, onaning milliy va umumbashariy fazilatlari, ideal shaxslar volidalari hayoti orqali eslatilgan. Onaga boʻlgan ehtirom, eʼzoz va eʼtibor oʻzining yuksak choʻqqisiga chiqqan. Ayoldagi bagʻrikenglik, iffat, itoat, siniqlik va jasorat millat onalari timsolida ochiqlangan. Samoviy kitoblarda bayon qilingan bashariyat tarixidagi haqiqatlar johiliyat davrlariga kelib buzib talqin qilinishi natijasida mif, afsona va asotirlarda ona obrazining turli-tuman shakllarini yuzaga kelishiga asos boʻlgan. Boshqacha aytganda, samoviy kitoblarda bayon qilingan onalar hayotining kechmishi mif, afsonalardagi ushbu obrazning sinkretik genezisi sifatida ilk asosga borib bogʻlanishi koʻzga tashlanadi. “Qurʼoni Karim” va hadisi shariflarda keluvchi qissa hamda oyatlar mazmunida onaga ehtirom koʻrsatish, hurmat qilish, asrab-avaylash, xizmatini ogʻrinmasdan bajarish haqida soʻz boradi. Jumladan, Qurʼoni Karimning Ahqof surasi 15-oyatida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: “Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. Onasi uni qornida qiynalib koʻtarib yurgan va uni qiynalib tuqqandir”[7].

Ona obrazi Turkiy xalqlar mifologiyasida Umay kulti universal ayol xudo boʻlgan. Uning maʼno va vazifalari turlicha boʻlib, Eron mifologiyasida Umay Xumoydan kelib chiqqan deb talqin qilinadi. “Xumoy qushi qaysi insonga oʻz soyasini solsa, u baxtli boʻlar ekan. Oltoy turklari Umayni unumdorlik maʼbudasi, togʻlarning bekasi, yovvoyi hayvonlar, onalar va bolalarning homiysi deb ham bilishgan. Umay kulti Sibir turkiy xalqlarda ham keng maʼnoda ishlatilgan. Umay

[7] Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Тошкент: Мунир, 2023. – Б. 508.

bu xalqlarda faqat bolalarni himoya qiluvchigina emas, balki bolalar jonini oluvchi sifatida ham talqin qilingan”[8]. Bunday qarash Oltoy turklarida ham bo‘lgan.

O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklarida ham Umay ma’budasi haqida ma’lumotlar keltiriladi. Yozma yodgorliklarning nodir namunasi hisoblangan “Kultegin” bitiktoshining “Ulug‘ bitig” deb nomlangan ikkinchi qismida Bilga xoqon va Kulteginning onasi sifatida nomi hurmat bilan tilga olingan Elbilga xotunga Tangrining nazari tushgani, uni o‘z martabasi darajasida yuksaklikka ko‘tarib ulug‘lagani haqida fikrlar berilgan.

Folklorga doir ertak, xalq qissalari va doston janri namunalarida ona obrazi milliy qiyofa kasb etadi, yolg‘iz-g‘amxo‘r, tutingan-rahmdil, o‘gay-yovuz, jasoratli-himoyachi ona obrazlari turli-tuman xalqona janrlarda poetik ifoda etiladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari, jumladan, “Alpomish”, “Kuntug‘mish” “Rustamxon”, “To‘maris” kabi rivoyat va dostonlarida jasoratli, vatanparvar, qasoskor, fidokor, onalar obrazi tasvirlangan.

Alisher Navoiy ijodiy merosida biz Alanquva, Zoli zar, Halima ona, Xadichabegim, Fotima, Ummi Muhammadiya, Bibi Munajjima, Bonu singari ism-shariflari keltirilgan yoxud, umuman, ona deb ta’riflangan ko‘plab mo‘tabar ayollar obrazini uchratamiz. Bu orqali ulug‘ shoir o‘zining tarbiya, tanbeh va ogohnomalari – ona roziligi va uning ko‘ngil shodligi har narsadan afzalligi haqidagi hadisi sharifga tayaniluvchi konseptual qarashlarini poetik ifodaga ko‘chirganining guvohi bo‘lamiz. Alisher Navoiy ijodining cho‘qqisi hisoblangan “Xamsa” asariga kirgan “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” dostonlarida ham genial shoir o‘zi bayon qilmoqchi bo‘lgan asosiy fikrning mazmunini ochishga xizmat qiluvchi Layli va Iskandarning onalari obrazlarini uchratamiz.

Biz tadqiq etayotgan qissalardagi onalarning imon-e’tiqodi mustahkamligi, jasurligi, qahramonligi, shijoati, badihago‘yligi, xokisorligi, farzand kamoloti uchun harakat qilishi kabi fazilatlar bilan Qur’on qissalari, xalq og‘zaki ijodining turli janrlarda yaratilgan asarlar, Alisher Navoiy asarlari va undan keyingi davrlarda yaratilgan asarlardagi ona obrazi bilan mushtaraklik kuzatiladi. Ushbu qissalarga tarixiy, nazariy, zamonaviy aspektda qarar ekanmiz, bunday qarashlar qorishiq holda bir-birini to‘ldirib keladi.

Bobning 1.2 paragrafi ***“Obrazning umumpoetik sathdan individual badiiy talqin sathiga o‘tish jarayonlari”*** tadqiqiga bag‘ishlangan. Mazkur paragrafda ona obrazining umumpoetik sathdagi talqini masalasiga to‘xtalib, individual sathga o‘tishi jarayonlari tahlilga tortilgan.

Zamonaviy o‘zbek qissalarida ona obrazining poetik takomilini yoritish, uning shakllanish jarayonlarini tadqiq qilishda umumpoetik sathdan, ya’ni folklor, mumtoz adabiyot namunalaridan XX asr o‘zbek nasriga o‘tganda ushbu obraz qanday o‘zgarishlarga yuz tutganini tahlilga tortish masala mohiyatini teran anglashga xizmat qiladi. Ayonki, XX asrga kelib o‘zbek nasrida nainki, obrazlar tasvirida, balki qissa janrida ham muayyan poetik o‘zgarishlar ko‘zga tashlandi. Bunda A.Qodiriyning “Obid ketmon”, G‘.G‘ulomning “Shum bola”, “Netay”,

[8] Потапов Л.П. Умай-божество древних тюрков // Тюркологический сборник, Восточная литература. – М.: 1972. – С. 275.

“Yodgor”, Oybekning “Bolalik”, A.Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” asarlari qissa janrining badiiy takomilida poetik bog‘lam vazifasini o‘tadi. Mana shunday adabiy-tarixiy jarayon fonida qissa janri tabiatida va uning obrazlari tasvirida qanday umumiy va xususiy jihatlar mavjudligini aniqlash dolzarb sanaladi. Shu ma’noda, ona obrazi takomilida badiiy-individual sathning talqin imkoniyatlarini belgilash, uning tarixiy, ijtimoiy, adabiy-estetik, psixobiografik omillarini tadqiq etish muhim.

Ona siymosi bosh obraz sifatida har qanday janrda tasvirlansa-da, unga xos xususiyatlar tipologik ma’no kasb etadi. Xususan, mo‘tabar manbalarda onaga ko‘rsatilgan ehtirom va ibrat ma’rifati, onaning ijtimoiy hamda maishiy hayotda tutgan o‘rni, onaga oila a’zolarining munosabati singari omillar zamonaviy o‘zbek qissalarida mazkur obraz talqinidagi tarixiylik, an’anaviylik muammosini oydinlashtiradi. Masalan, O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida markaziy syujet chizig‘i ona obrazi asosiga qurilgan. Qolgan turli qissa voqealari bosh syujet shahobchalari sifatida ona obrazining u yoki bu qirrasini ochishga xizmat qilgan.

XX asr o‘zbek qissalarida ona timsolining realistik tasviri yaratilgan. Bunda davrning ijtimoiy qiyofasi, shaxs fojiasi, jamiyat muammolarini ich-ichidan realistik tasvir aslahalariga tayanib badiiy aks ettirish ko‘zga tashlandi. Onaning real dunyosi, hayotning shafqatsiz tomonlari, jamiyatning onaga munosabati tanqidiy ruhda epik idrok etilgan. Bu esa, oila va jamiyat o‘rtasidagi muhitni hamda ijtimoiy-maishiy hayot voqeligini bor-bo‘yicha ko‘rsatishga zamin hozirladi. Onaning real qiyofasi uning o‘y-xayollari, ichki iztiroblari, favqulodda hodisalar fonida badiiy talqin qilinadi. Ona obrazi tasviri takomilida jadidchilik harakati, sho‘ro bosqini, urush fojiasi hal qiluvchi mohiyat kasb etgan.

A.Fitrat, A.Qodiriy, A.Cho‘lpon, G‘.G‘ulom, Oybek nasrida mazlum va jabrdiyda – ona, yolg‘iz boquvchi – ona, front ortidagi sabr-toqatli – ona, tutingan, mehribon – ona, o‘gay, johil – ona, o‘gay, rahmdil – ona, dono, ma’rifatparvar – ona singari obrazlar tizimi realistik tasvir aslahalari mahsuli o‘laroq epik talqin qilindi. Masalan, XX asr o‘zbek nasrida ona obrazining umumpoetik sathdan individual badiiy talqin sathiga o‘tish jarayonini birinchi o‘zbek romanidagi O‘zbek oyim obrazi misolida ko‘rishimiz mumkin. “O‘zbek oyimning oila a’zolariga, jumladan, o‘g‘li Otabekka munosabati tamomila o‘ziga xos. Biz bilamizki, onalarning isbotsiz qabul qilinadigan bir sifatlari bor. Bu – onalik instinkti. Ona va farzand munosabatida mudom shu tuyg‘ular g‘olib keladi. Ya’ni onalar farzand gunohini har qanday vaziyatda bo‘lmasin, kechiradilar. Aslida, ularning buyukliklari ham, zaifliklari ham shunda namoyon bo‘ladi”[9]. O‘zbek oyim sodda, shu bilan birga, o‘jar, gapini o‘tkazadigan, aytganini qildiradigan ayol. Uning soddaligi, beg‘uborligi, mehribonligi umumpoetik sathda tasvirlangan ona obrazlariga hamohang, ammo gap-so‘zlari, o‘glining taqdiriga aralashishi, o‘sha davr ayollariga xos bo‘lmagan, eriga hukmini o‘tkaza oladigan shaddodligi, o‘ktamligi, kayvoniligi, izzattalabligi hamda “og‘ma”ligi individual sathga evrilganini ko‘rsatgan.

[9] Жўракулов У. Қодирий ва роман тафаккури. – Тошкент: Nurafshon business, 2020. – Б. 94.

Ona obrazining badiiy talqini O‘.Hoshimov nasrida markaziy o‘rinda turadi. Uning nasrida ona obrazining ilk chizgilari “Odamlar nima derkan” (1966) qissasidan boshlangan. Yozuvchi ona-bola munosabatlari bilan bog‘liq syujet orqali onani hayot tashvishlariga bardoshli, o‘z hayotida paydo bo‘lgan har qanday muammolarni yechishga qodir ma’naviy ideal tarzida tasvirlaydi. Keyinchalik ona obrazi yozuvchining “Odamlar ovozi” hikoyasi qahramoni Mastura xola obrazida kengroq talqin qilindi. Mastura xolaning sadoqati eski uyini tashlab ketmasligida namoyon bo‘ladi. Avvalo, uy marhum eriga bo‘lgan cheksiz muhabbati va sadoqatining ramzi. Shu maskanda farzand nafasi, ya’ni onalik hissini tuygan. Shuningdek, O‘.Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasidagi Umri xola, “Dunyoning ishlari” qissasidagi Poshsha xola, “Ikki eshik orasi” romanida Qora amma, Robiya, Ra’no, Lazakat xola, Xolposh xola, Bashorat kabi obrazlar ham tahlil qilindi. Adib asarlarida ona obrazini faqatgina oddiy ayol, shunchaki, yaqinlariga, qolaversa, begonalarga ham mehr ulashadigan hamda odob-axloqni targ‘ib etuvchi inson sifatida tasvirlab qolmay, Poshsha ona, Qora amma, Bashorat xola, Zebi xola, Qurbonoy xola, Robiya kabi personajlarda chuqur ijtimoiy, teran g‘oyaviy salmoq bilan to‘yintirilgan qahramonlar xarakterini ham yoritib beradi. Adib asarlarida jamiyatda faol ishtirok etgan, hayotga, jamiyatga biroz bo‘lsa-da, ta’sir eta olgan ona obrazlarini ham uchratamiz. Adib yaratgan ona obrazlari rang-barangligi jihatidan yozuvchining mahoratini namoyon etadi.

I.Sulton ona obrazini maromiga yetkazib yaratgan asari bu “Onaizorim” qissasidir. Qissa 2013-yilda yozilgan. Muallif qissasida uch avlod onalari haqida so‘z yuritadi. Ona qaysi zamonda, qaysi davrda, necha yoshda, qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, ularning o‘y-xayollaridagi, farzand tarbiyasidagi, uy-ro‘zg‘or ishlarini bajarishdagi o‘xshashlikni ko‘rsatib beradi.

Adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdamov “Onaizorim” qissadagi ona obrazi haqida quyidagi fikrlarni aytadi: “Ona o‘zbek adabiyotida ko‘p ishlangan mavzulardan hisoblanadi. Lekin I.Sulton ijodidagi ona obrazi mavjudlari bilan ko‘p jihatdan farq qiladi. Avvalo, asarning borliq komponentlari: detallar, qahramonlar, asar syujeti, badiiy priyomlar – hamma-hammasi boshdan oyoq shu obraz talqini atrofida jipslashadi”[10]. I.Sulton onalarni hayot, borliq, tabiat va tabiatdagi barcha tirikliklar bilan uzviy bog‘liqlikda tasvirlaydi. Ona tabiatdagi yaratuvchanlikni onadagi yaratuvchanlikka qiyoslaydi.

G.Mardonovaning “Quyoshim – enam” qissasida qadim adabiyotimizning umumpoetik sathida tasvirlanganidek, bolalari uchun jon kuydiradigan, farzandlarini iymon-e’tiqodli, el-yurtga nafi tegadigan, birovning haqqidan qo‘rqadigan, ma’rifatli insonlar qilib tarbiyalagan ona siymosini ko‘ramiz. Shu bilan birga, G.Mardonova tasviridagi ona nihoyatda zakiy, xalq og‘zaki ijodining bilimdoni, mehnatsevar, tunni tonglarga ulab farzandlarining ta’minoti uchun tinim bilmay mehnat qiladi, jigarlarining tashvishini qiladi.

Mustaqillik davri o‘zbek qissalarida ona obrazi qiyofasi realistik tasvir aslahalari bilan boyitilgan. Bunda biografik, tarixiy-ijtimoiy, psixologik omillar

[10] Ҳамдамов У. Таърифи – адиб, унвони – инсон бўлган ёзувчи ижоди // Янги Ўзбекистон. – Тошкент, 2023. № 3.

yetakchilik qilish bilan birga, ona siymosining zamonaviy koʻrinishini chizishda poetik asos vazifasini oʻtagan. Ijtimoiylashgan ona obrazi hayotning turli-tuman tashvishlari fonida badiiy talqin qilingan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Qissa matnida ona obrazining oʻrni va badiiy vazifasi”** deb nomlanadi. Mazkur bob ikki paragrafdan tashkil topgan. 2.1 paragrafida ***“Qissa kompozitsiyasida ona obrazining oʻrni”*** masalasi oʻrganilgan. Badiiy asarning turli qismlari bir-biriga mutanosib holda joylashtirilgan boʻlsa, uning gʻoyaviy-estetik ta’siri ham yuqori boʻladi. Asarning turli qismlari orasidagi mutanosiblik esa kompozitsiya deyiladi. “Kompozitsiya (lot. tartibga solish, tuzib chiqish) asardagi barcha unsurlarni shunday uyushtiradiki, natijada unda bironta ham ortiqcha unsurning oʻzi boʻlmaydi, zero, har bir unsur asar butunligida oʻzining funksiyasiga ega boʻladi, muayyan gʻoyaviy-badiiy yuk tashiydi”[11].

Qissa kompozitsiyasi sathida ona obrazining oʻrni, uning poetik funksiyasi voqealarni tutib turishda va ularni tarkiblashda oydinlashadi. Qissa kompozitsiyasida muallif nuqtayi nazari bilan bosh qahramon koʻz qarashi uygʻunlashib, asar voqealarini uyushtirishda badiiy funksiya bajaradi. Ayniqsa, badiiy sarlavha qissa kompozitsiyasi va syujetini epik idrok etishda poetik ochqich vazifasini oʻtaydi. “Dunyoning ishlari”, “Onaizorim”, “Quyoshim-enam” qissalarida badiiy sarlavha nafaqat fokus nuqta, balki yozuvchining badiiy niyatini oʻzida mujassam qiladi. Qissa markazida inson hayoti, uning shaxsiyati yotishi, asar kompozitsiyasi yagona “jumla” konsepsiyasi asosida qurilishi, badiiy syujet voqeligini tezis-antitezis-sintez sxemasi doirasida bayon qilinishi, obrazlar tizimida ichki nutqning boʻrtib koʻrinishi mazkur janrning yalpi garmoniyasini namoyon qiladi. Shunga muvofiq, zamonaviy oʻzbek qissalari mohiyatan tipologik ma’no kasb etadi.

Oʻ.Hoshimov qissada ona xarakteri qirralarini ochish bilan birga, oʻzining ham ichki kechinmalari bayonini berdi. Qolaversa, Poshsha oyi obrazidan tashqari, boshqa ona va bolalar taqdirini ham qissa kompozitsiyasiga kiritdi. Jumladan, “Mahallaning shayxi” hikoyasida shayx laqabli bola va uning beva onasi, “Toy” hikoyasida Toyir va Niso xola obrazi, “Ermon buvaning tilagi” hikoyasida urushga ketgan oʻgʻil Oltmishvoy va farzandini urushdan qaytishini kutib-kutib, bir bora koʻrolmay vafot etgan Habiba buvi, “Oʻris bolaning oyisi” hikoyasida Zebi xola va Vali obrazlari, “Xoʻja” hikoyasida esa, Xoʻja va uning onasi, “Oy quyoshdan nur oladi” hikoyasida Risolat opa va uning oʻgʻli Orif, “Havas” hikoyasida esa, Mehri xola va uning oʻgʻli Jahongir kabi personajlar hayoti va taqdiridan lavhalar berib, Poshsha oyi xarakterini ochib beradi.

I.Sultonning “Onaizorim” qissasi kompozitsiyasida qahramonning obrazi bir me’yorda turadi. Voqealar, qahramonlarga u bilan bogʻliq holda tafsilotlar beriladi. Qissaning qizlar tarbiyasi borasida ahamiyati yuqori. Bir oʻzbek qizi bilishi kerak boʻlgan tarbiya, odob-axloq, roʻzgʻor tutumlari, odamlar bilan munosabatlarning hammasi ona maqomidagi inson borki, farzandlarga uqtiriladi. Bu an’ana, hayot charxpalagidek koʻrsatib beriladi. Ushbu jihatlari bilan ham “Dunyoning ishlari” hamda “Quyoshim – enam” qissalaridan farqlanib turadi. Kompozitsion jihatdan

[11] Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Абдулла Қодирий, 2004.– Б. 111.

“Dunyoning ishlari” qissasi bilan o‘xshashlik tomoni qissa so‘nggida muallifning ichki ruhiy kechinmalari, ona sog‘inchi, hayot haqidagi falsafasi beriladi.

G.Mardonova onaning turmush tarzi, uy yumushlari, bolalar tarbiyasiga, ilm olishiga munosabatini yoritib bergan. Onaning farzandlarini ilmli bo‘lib ulg‘ayishini xohlashi va bunga sharoit yaratib berishi, kerakli o‘rinlarda motivatsiyalar berishi, ulardan faxrlanishi onaning o‘ziga xos fazilati bo‘lib tasvirlangan. Muallif tasvirlagan zamon, muhitda ota-onalar farzandlarining, ayniqsa, qizlarning ilmli bo‘lishiga ahamiyat bermaydi. Ushbu o‘rinda ona ilmni va ilmli insonlarni qadrlaydigan, ularga havas bilan qaraydigan obraz sifatida gavdalantiriladi. G.Mardonova mazkur nuqtayi nazari bilan ham O‘tkir Hoshimov va Isajon Sulton nuqtayi nazaridan farqlanib turadi.

Ikkinchi bobning ***“Ona obrazining qissa voqeligi va obrazlar tizimidagi badiiy vazifasi”*** deb nomlangan 2.2 paragrafida o‘rganilayotgan qissalar syujeti va obrazlar tizimining o‘ziga xosligi haqida fikr yuritilgan. Qissalar syujeti va obrazlar tahlili asosida badiiy-psixologik tasvirga oid ilmiy talqinlar ilgari surilgan.

Har bir asarda obrazlar tizimi syujet davomiyligini ta’minlab, asarning mazmuni hamda qahramonlarning xarakter qirralarini namoyon qilishda ma’lum badiiy funksiyalarni bajaradi. “Dunyoning ishlari” qissasida voqealar muallif bolaligi, bolalikdagi xotiralari bilan boshlanib, otasi, onasini, aka-ukalari bilan o‘tkazgan kunlarini hikoya qiladi. Qissaning boshidan to so‘nggiga qadar yozuvchi bolalik xotiralariga murojaat qiladi. Onasi va onasi atrofida bo‘lgan voqea-hodisalarni qayta jonlantiradi va badiiylashtiradi. Hikoyalar voqealari orasida vaqt munosabati yetakchilik qiladi. Bunday hikoyalarga “Tasalli”, “Tush”, “Qarz”, “Eng og‘ir gunoh”, “Bola yig‘isi”, “Surat”, “Xiyonat”, “Kitob”, “Mahallaning shayxi”, “Qanoat”, “Opamni topib oldim”, “Bozor”, “Po‘stdumbali moshkichri”, “Oltin baldoq”, “Xo‘ja”, “Usta”, “Havas”, “Kaltakesakning dumi” kabi hikoyalarini kiritishimiz mumkin. Masalan, “Bozor” hikoyasida bolaning aka-ukalari bilan munosabati, akalari bo‘lishining yaxshi yoki yomon taraflari, ulardan qolgan kiyimlarni kiyishi-yu, maktabda qanday bahoga o‘qishi tasvirlanadi. Hikoya davomida esa onasi bilan qoraquloq echkisini sotish uchun bozorga borganliklari, insofsiz dallolga duch kelib chuv tushishganligi bayon etiladi. Onaning tushkun va chorasiz holati tasvirlanadi.

“Oq, oydin kechalar”, “Haqqush”, “Ikki afsona”, “Alla” nomli hikoyalarida farzand onasi aytgan mehrli allalar, qiziqarli rivoyatlar, afsonalar va lirik qo‘shiqlar haqida so‘z yuritadi, yodga oladi. Bu esa, onalarning ilmi, adabiyotga muhabbat, badihago‘ylik, farzand tarbiyasidagi o‘rnidan dalolat beradi. Adib qissa tarkibiga she’r, maqol, rivoyat, afsona, alla kabilarni kiritishi yozuvchi badiiy niyatini teranlashtirish, obraz mantig‘ini asoslash voqelikni estetik, falsafiy jihatdan to‘yintirishga xizmat qilgan.

I.Sultonning “Onaizorim” qissasida voqealar Ra’no ismli qizaloqning bolaligi, o‘smirligi, kelinligi, onaligi, buviligi davrlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Qissada fasllar almashinuvi, davr o‘zgarishi, umuman olganda, hayot charxpalagi turli obrazlar vositasida yoritib berilgan. Muallif yaratgan portretlarda peyzaj va boshqa unsurlar chatishib ketishi sababli obrazlar xarakteri yanada yorqinroq ochiladi. Bir o‘zbek oilasidagi tutumlar, qiz farzand tarbiyasida ota-onaning o‘rni,

ular bergan tarbiya, o‘gitlar orqali millat onasining dunyoqarashi, fikrlashi, o‘zbek oilalaridagi ijtimoiy-maishiy hayot yoritib berilgan. Onaga xos fazilatlar dastlab qizaloq Ra’no, uning otasi, xolasi kabi personajlar orqali namoyon bo‘ladi. Ona Ra’noga qiz bolada bo‘lishi lozim bo‘lgan fazilatlarni o‘rgatadi, natijada onaga xos fazilatlar ham namoyon bo‘ladi. Onaizor qizaloqqa kichikligidanoq saramjon-sarishtalikni, toza-ozodalikni, mehnatkashlikni, tejamkorlikni o‘rgatadi. Ona ham bir vaqtlar shu tarbiyani o‘z onasidan olgan, kun kelib endi o‘z qiziga o‘rgatmoqda. Onaizor qiziga otasini hurmat qilishni, unga turli yumushlarda yelkadosh bo‘lish kerakligini uqtiradi. Mehmon kutish, uni qanday kuzatish, dasturxonni qanday solib, nimalar qo‘yishigacha o‘rgatadi.

G.Mardonovaning “Quyoshim – enam” qissasi voqeiy qissa bo‘lib, muallif o‘zi yashagan muhit, bolaligi o‘tgan qishloq va shu qishloqning samimiy, sodda odamlari, oila a’zolari haqida yozadi. Qissada obrazlar tizimi onaning xarakter qirralarini ochib beradi. Qolaversa, onaga xos bir qancha noyob fazilatlar roviy-personaj tafsilotlari orqali yanada konkretlashadi. Yozuvchi “Qo‘rg‘onim – otam” bobida onaning o‘ziga xos bir xislati bilan so‘z boshlaydi: “Enam… Enam uyda mol-hol so‘yilguday bo‘lsa, yuragini avaylab oldirib qo‘yadi: – Otang minan akalaring jeydi, juraklari tovday bo‘lsin, iloyim. Jigari-yu buyragini olib qo‘yadi: – Kelin, chalaroq qilib qovur, bolalarimning buyrak, jigari sov bo‘lsin. Otang aytadi Ibn Sino yozgan ekan, odam qaysi a’zosi sov bo‘lishini xohlasa mol, qo‘yning ana shu a’zosini tez-tez jeb turishi keragekan, – deydi”[12]. Qissada ona obrazining mukammal chiqishini ta’minlagan obrazlardan biri Ota obrazidir. Otaga xos fazilatlar, uning hayot yo‘li, oiladagi hamda qishloqdagi obro‘si, martabasi haqida so‘z yuritiladi. Qissada quyidagi tartib-intizom orqali muallif bir oila misolida o‘zbek oilalari, ularning otaga bo‘lgan hurmati va bunda onaning ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

“–Boba-yov, kelag‘ang ovqat sovidi…

Ana shu elning oldi otam, to‘rt qiz, to‘rt o‘g‘ildi uylab-joylagan, hammasini oliy dargohlarda o‘qitgan, ularning chin inson bo‘lishida fidoyilik ko‘rsatgan otam ovqat suzilganini eshitsa ham, shoshilmay uy tomon yuradi. Xotirjamlik bilan ust-boshini qoqadi. Ohista qo‘l-betini yuvadi, shoshilmay artinadi. So‘ng o‘ziga yarashgan vazminlik bilan dasturxon to‘ridan joy oladi. Ana shunday. Bizning uyda otam dasturxon boshiga kelmaguncha tovoqqa qo‘l cho‘zilmagan hech mahal. Bularning bari bizning ong-u shuurimizga saboq bo‘lib singigan. Bu enamning sabog‘i”[13].

Ko‘rinadiki, qissalarda voqealar hamda obrazlar tizimi turlicha. “Dunyoning ishlari” qissasida ko‘plab personajlar qatnashgan bo‘lib, turli vaziyatlar orqali ularga hamda asar qahramoniga xos fazilatlar ochib beriladi. “Onaizorim” qissasida esa, muallif hayot yaratiqlarini ham obraz darajasiga ko‘taradi. Muallif ular bilan munosabat, suhbatlar orqali qahramonga xos fazilatlarni yoritib beradi. “Quyoshim –enam” qissasida ko‘proq muallif tafsilotlari, oila a’zolari bilan bo‘lgan dialoglar onaning xarakter qirralarini ko‘rsatib beradi.

[12] Мардонова Г. Қуёшим – энам. – Тошкент: Шарқ, 2021. – Б. 28.
[13] Shu muallif. Shu sahifa.

Dissertatsiyaning so‘nggi bobi **“Ona obrazining milliy asoslari va qissaga xos poetik ifoda”** deb nomlanadi. 3.1 paragrafida ***“Ona milliy xarakterning potensial asosi sifatida”*** masalasini o‘rganishga qaratilgan.

Mustaqillik davri o‘zbek qissalarida ona siymosi milliy zamin ruhi bilan uyg‘unlik kasb etadi. Shu bois, ko‘zda tutilgan har uchala qissada ona ruhiyati, ma’rifiy dunyosi milliy an’ana, urf-odat va qadriyatlardan oziqlanadi. Shu bilan birga, ayni paytda, millat udumlarining targ‘ibotchisi sifatida badiiy talqin qilinadi. Qissa janr tabiati e’tibori bilan milliy zaminga mos va xos xarakter yaratishda eng qulay asar hisoblanadi. Shunga muvofiq, ona obrazi qiyofasini chizishda milliy tasvir bo‘yog‘i ustuvorlik qiladi. Onaning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblaridan tortib, uning tashqi portreti, gap-so‘zlari, amali va niyati, maqtovi va qarg‘ishigacha milliy ifoda ko‘zga tashlanadi.

Yozuvchi asar yaratar ekan, uni milliylikdan xoli tasvirlay olmaydi. Zero, milliylik adabiyotning asosiy ozig‘i hisoblanadi. Chunki har bir xalqning adabiyoti o‘sha millat ko‘zgusida akslanadi. Milliy ifoda, milliy ruhga e’tibor masalasi badiiy asarga millat etiketini taqdim etadi. Bu, o‘z navbatida, o‘sha xalq adabiyotini dunyoga yuz tutishida muhim belgi bo‘lib xizmat qiladi. Xuddi, shuningdek, milliy xarakter muayyan millatning uzoq o‘tmishidan boshlab paydo bo‘ladigan ijtimoiy, ma’naviy, madaniy-ma’rifiy xususiyatlardir. Badiiy asarning dunyoga kelishida millatga xos bo‘lgan belgi-xususiyatlarni e’tiborga olish, ularni asar matniga singdirib yuborish talab etiladi.

“Dunyoning ishlari”da alla aytayotgan ona tasviri mukammal ifodalangan. Qadimiy va umrboqiy bu qo‘shiqda ona bolasiga mehr berish bilan birga, uni erkalaydi, olqishlarga, maqtovlarga sazovor etadi. Farzandining kelajagiga umid bog‘laydi.

Alla, bolam uxlay qol-a, alla,
Quchog‘imda orom ol, alla...
Tog‘lardagi shunqorim-ey, alla,
Beshikdagi qo‘chqorim-ey, alla[14].

Alla matniga e’tibor qaratsak, tog‘lardagi shunqor obrazidan foydalanishi bolani kuchli, jasur qilib tasavvur qilishni anglatadi. Ona farzandini kelajakda shunqor kabi baquvvat bo‘lishini tilaydi. Qo‘chqorim obrazi esa, kuch va himoya ramzi. Bu obraz bolaning sog‘lom, kuchli va mard bo‘lishi haqidagi onaning orzu-umidlarini aks ettiradi. Qissada yozuvchining alla to‘g‘risida shunday mulohazalari bor: “Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam o‘z sevgilisiga aytgan dil rozini dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam aytgan qo‘shiqni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chekkasida turib bir odam aytgan oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Biroq, dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go‘dak bemalol orom oladi”[15]. Ona allasining ohangi

[14] Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 223.
[15] Shu muallif. – B. 44.

jozibasini yozuvchi Alloh so‘zi – Qur’oni Karim oyatlari tilovati sadosi bilan qiyoslaydi.

I.Sulton ijodida milliy kolorit haqida Xursand To‘liboev “Isajon Sulton asarlarida esa “milliy qadriyat” va “milliy ruhning” singdirilishi, o‘sha kayfiyatga murojaat qilishi kitobxonni beixtiyor izidan ergashtiradi”[16], – deb yozadi. Tabiiy ravishda “Onaizorim” qissasida ham o‘zbek onasi xarakteridagi milliylikni mohirona tarzda ochib berishda alladan foydalanilgan. Muallif alla aytayotgan onani tasvirlar ekan, uning hayotdan mamnunligini farzandi borligi bilan bog‘laydigan millat onasiga xos fazilatni ko‘rsatib beradi. Shuningdek, yozuvchi milliy qadriyatlarimiz, to‘y-tomosha, marosimlarimizni alohida yodga oladi. To‘ygacha bo‘lib o‘tadigan urf-odatlar haqida ham yozadi. “Non sindirildi, oqlik berildi. Kelganlarning erkaklariga belbog‘, ayollariga ro‘mol, dasturxonlariga non va qand-qurs solindi. Sovchilar xushhol, yuz-ko‘zlari sevinch-u mamnuniyatdan porlab, xayr-xo‘shlashib jo‘nashdi. “Xudo xohlasa, endi qarindosh bo‘ldik”, – deyishdi ketar oldidan”[17]. Muallif milliy urf-odatlarni tasvirlar ekan, o‘z navbatida, kitobxon ko‘z o‘ngida o‘zbek xalqining bir-biriga mehr-oqibati, samimiyati va bag‘rikengligini, o‘zbek onalariga xos mehmondo‘stlikni ham yoritib bergan.

G.Mardonovaning “Quyoshim – enam” qissasida qadriyatlarni ulug‘lovchi, ularni asrab-avaylashni yosh kelinlarga uqtiruvchi ona siymosini uchratamiz. “Badaxshonlik kelinchaklar biror sabab bilan uyimizga kelishguday bo‘lsa, enam ularga uqtirardi: Bolam yaxshi odam bo‘lsin, desang, alla ayt. Kitoblardan gapirib ber. Momo-buvasi kim bo‘lganini tanit. Bolang bema’ni gurungingni eshitmasin. Eshitsa, o‘zingdan hapa bo‘livur, bolam. Olsang, nasihat, olmasang, o‘zing bilasan, – deb qo‘yardilar. O‘zlari esa olam-jahonni unutib mana bunday alla aytardilar:

Alla aytay, alla-yo,
Qo‘zichog‘im alla-yo.
Onasining erkasi,
Ovunchog‘im alla-yo.
Alla qilay quloq solsin,
Alla degan so‘zima.
Erkatoyim boy bo‘lib,
Nurlar bersin ko‘zima”[18].

Ena tilidan yosh onalarga aytilgan nasihatlar ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega. Qissada ona xalq og‘zaki ijodining namunalaridan, marosim qo‘shiqlari, ertak, rivoyat, maqol va matallarini ham yaxshi bilishi tasvirlangan.

Har uchala qissada ona markaziy obraz sifatida ikkinchi darajali personajlarning xarakterini ochishda yo‘lchi yulduz vazifasini bajaradi. Ayniqsa, “Dunyoning ishlari” qissasida ona nigohi, uning purma’no fikrlari va hayotiy tutimlari atrofidagi odamlarni hayratga soladi. Roviy obrazini ruhan poklanishiga, ma’nan yuksalishiga zamin hozirlaydi. “Onaizorim”da esa, Ona xarakteri oiladagi maishiy tashvishlar fonida poetik ifoda etiladi. Ona xarakterini minimum ibtidosidan maksimum holatigacha qamrab olinib, bosqichma-bosqich shakllanish

[16] Тўлибоев Х. Исажон Султон ижодий портретига чизгилар. – Тошкент: Муҳаррир, 2013. – Б. 7.
[17] Султон И. Боғи Эрам. – Тошкент: Шарқ, 2015. – Б. 42.
[18] Мардонова Г.Куёшим – энам. – Тошкент: Шарқ, 2021. – Б. 65.

jarayoni badiiy ifoda etiladi. “Quyoshim – enam” qissasida ona xarakteridagi milliylik voqeadan voqeaga qarab boʻy koʻrsatib, poetik jihatdan takomillashib boradi.

Uchinchi bobning 3.2 paragrafi ***“Qissada ona obrazining individual asoslari va poetik ifoda shakllari”*** muammosiga bagʻishlangan. Qissalar mavzu va gʻoyasi, umuminsoniy pafosi jihatidan mushtaraklik kasb etsa-da, bir-biridan farqlanuvchi Toshkent shahri, Fargʻona vodiysi va Qashqadaryo vohasi odamlarining hayot tarzi, mahalliy koloriti, urf-odatlari tasvirlangani, mualliflari adabiy-estetik qarashlari shakllangan davr, ijodlari ichki tadriji, yetakchi tamoyillari, ta’sirlangan manbaalari, ustozlari hamda oila muhiti, poetik mahoratining oʻziga xos qirralariga koʻra alohidalik ham kasb etadi. “Dunyoning ishlari” qissasida muallif birinchi darajali personajlardan biri boʻlib, doim ona bilan yonma-yon keladi. Adib onasi bilan oʻtgan kunlari, bolalik xotiralarini xayolan qayta tiklaydi va ushbu qissani yozadi.

Qissada Oʻ.Hoshimovning oʻta shaxsiy dard-iztiroblari aks etgan. Bu fikrni adibning oʻzi ham ta’kidlab: “1980-yili onamning toʻsatdan vafot etishi menga juda ogʻir ta’sir qildi. Farzandlik burchimni qay darajada ado etdim, degan oʻkinchli xayol vujudimni larzaga soldi. “Dunyoning ishlari” kitobi shu iztirobli tuygʻular tufayli tugʻildi”, – deb yozadi. Shunga qaramasdan, qissadagi Ona obrazi xususiylik doirasidan ancha xorijga chiqib, umummilliy, umuminsoniy mohiyat kasb etadi. Chunki, Oʻ.Hoshimov ta’kidlaganiday: “Badiiy asar shunday daraxtki, uning shoxida umumbashariy mevalar yetiladi, ildizi esa milliy zaminda yotadi”[19].

Adib oʻz asarlarida Toshkent tabiati va koloritini tasvirladi, shu badiiy makon aro uygʻun tarzda qator orginal obrazlarni yaratdi. Badiiy zamon nuqtayi nazaridan esa, oʻtgan asrning muhim tarixiy voqealarini, davriy oʻzgarishlarni, bu oʻzgarish va zamon evrilishlari fonida inson iztiroblarini mahorat bilan aks ettira oldi. Qissaning “Tasalli” hikoyasida muallif qabristonni tasvirlar ekan, qabriston jimjitligini aytib, yoʻlakning ikki chetida saf tortgan mirzateraklarni qabr ustiga bosh egib onaga orom tilab alla aytayotgan farzandlarga oʻxshatadi. Teraklarning mungli shivirlashini tilovat sadolariga qiyoslaydi. Ushbu peyzaj tasviri orqali muallif koʻz oldimizda qabriston, farzandlar, tilovat sadolarini keltiradi. Bu oʻxshatishlar qissani yanada ta’sirchan qilib, asarning badiiy qimmatini oshiradi.

Isajon Sulton “Onaizorim” qissasi poetikasida inson mohiyatini ramziy ishoraviy aspektda tasvirlaydi, ilohiy hikmat asnosida olam yaratiqlari aro bogʻliqliklarni asoslaydi. Shu bilan birga qissa qahramoniga xos soddalik, poklik, bagʻrikenglik kabi fazilatlarni kurrai zamin bilan bogʻliqlikda ifodalaydi. Adabiyotshunos B.Karimov bu haqida shunday deydi: “Badiiy asardan yozuvchi tabiatiga xos xususiyatlarni anglash, his etish ijodkor yashagan ijtimoiy va oilaviy muhitni, ma’naviy-ruhiy, e’tiqodiy dunyoqarashini anglash orqali yuzaga keladi”[20].

Qissa qahramoni Ra’noning individual xususiyatini belgilash, uning tabiat tilsimini ichki sezgi bilan oʻqishi, bevosita yoki bilvosita aloqadorlik holatini haqqoniy gavdalantiradi. Inson qismatida bolalik, oʻsmirlik, oʻrta yosh, keksalik

[19] Ҳошимов Ў. Ижод ҳақида битиклар // Ҳуррият. – Тошкент, 2021. № 49. – Б. 7.
[20] Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2016. – Б. 176.

nafaqat fiziologik xususiyati bilan, balki maqsadi bilan ham farqlanib turadi. Ra’noning bolalikdagi beg‘uborligi, qiziquvchanligi uning siyratiga ilk chizgi tortadi. O‘smirlikdagi hayoti bolalik sho‘xliklaridan tashlab, ichki hadik, turli xil o‘y-xayollar bilan haqiqiy uyi, oilasiga boradi. O‘rta yoshida esa, endi u nafaqat kelin, balki bir nechta farzandlarning onasi hamdir. Endi uning yashashdan maqsadlari ko‘p, oilasi, farzandlari, uy-ro‘zg‘or tashvishlari bilan yashaydi. Keksalik … Ra’no kampir umrining bu bosqichida farzandlariga qarab bolaligini, o‘g‘liga, keliniga qarab kelinlik davrini, o‘zidan o‘tayotgan ayni damdagi hissiyotlari bilan ota-onasini, qaynonasini yodiga oladi. Umrining so‘ngida hayot haqidagi fikrlari, xulosalari, iqrorlarini ko‘nglidan o‘tkazadi.

Qissa haqida adabiyotshunos Umida Rasulova shunday deydi: “Isajon Sultonning “Onaizorim” qissasida oila ma’naviyati yaxlit polotnoda tasvirlanadi. Bolalikdan odob-axloq ahkomlarini singdirish, nabotat-u hayvonotga oqibatni uqtirish asar leytmotivini belgilaydi. Xususan, oilada ota-ona o‘rtasidagi mehr sadoqat, burch kabi fazilatlar hayotiy lavhalarda taqdim etiladi. Qissada asrlar mobaynida o‘zbek oilasida rioya etilayotgan ko‘hna an’analar bosqichma-bosqich aks ettiriladi. Asarda milliy, madaniy an’analar negizida qurilgan motivlar syujetni jonlantirib voqealarni ta’sirli yoritadi. Farzandni bolalikdan orastalik, saramjonlikka o‘rgatish borasida zarur o‘git beriladi”[21].

G.Mardonova Ona obrazini yaratishda o‘z onasining tashqi ko‘rinishi, hayot tarzi, farzandlar bilan munosabati asos bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, qissa muallifi ota-onasining ajdodlaridan tortib to avlodlarigacha, ularning ismlari, kasb-korigacha ma’lumotlar beradi. Ilgari qo‘l mehnati bilan qilingan hunarlar, ularni qanday bajarish kerakligi haqidagi yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatmalar esa badiiy bo‘yoqlarda jozibali aks ettiriladi. Tabiiyki, bu orqali hunarmandlarga tabiat go‘zalliklaridan foydalana olish sir-sinoatlari o‘rgatilgan, g‘oyalar berilgan.

G.Mardonova ijodida ona obrazi ko‘p o‘rinlarda uchramasa-da, “Quyoshim – enam” qissasida gavdalantirilgan ona obrazi boshqa asarlardagi ona obrazlaridan tubdan farq qiladi. Adiba yaratgan ona obrazi xalq qo‘shiqlari, xalq og‘zaki ijodi namunalarini yaxshi bilishi, farzandlarining ilmli bo‘lishiga jiddiy e’tibor qaratishi, oilada otaning o‘rnini yuqori qo‘yishi, el ichida obro‘-e’tibori yuqoriligi, uddaburonligi, shijoati bilan ajralib turadi. Muallif asarlarida yaratgan ona obrazi orqali o‘zbek onalariga xos bo‘lgan bir qator go‘zal sifatlarni ham namoyon etgan.

Har uchala qissada ona obrazini yaratishda umumiy jihatlar kuzatilsa-da, ushbu obraz o‘zining individual asosi, poetik ifoda shakllari bilan alohidalik kasb etadi. Bunda mahalliy kolorit, oilaviy tutum, milliy til, yozuvchi uslubi, ijodiy niyati va poetik mahorati hal qiluvchi rol o‘ynagan. Qolaversa, muallifning nuqtayi nazari, badiiy rejasi, tuli xil biografik omillar ona siymosini gavdalantirishda o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qilgan.

[21] Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 76.

## XULOSA

1. Zamonaviy qissalarda ona obrazi bevosita XX asr oxirlarida batafsilroq, yorqinroq yoritila boshlandi. Obraz badiiy anglamida tarixiy-madaniy, ijtimoiy-estetik manbalar muhim o‘rin tutdi. Diniy-ilohiy manbalar, jumladan, “Qur’oni Karim”, “Hadisi sharif”larda onalar ta’rifi, ularga qanday munosabatda bo‘lish kerakligi haqida berilgan pand-nasihatlar, shuningdek, turkiy xalqlar mifologiyasi va xalq eposlaridagi poetik talqinlar, xususan, Umay onaning ilohaga tenglashtirilishi bilan bog‘liq tushuncha va tasavvurlar badiiy ijodga samarali ta’sir etdi.

2. Xalq dostonlari va zamonaviy qissalarda ifodasini topgan ona obrazlarining umumiy fazilatlarida mushtaraklik mavjud. Lekin asar g‘oyasi, ifoda usuli, tasvir vositalari, kompozitsion jihatlari bilan alohidalikka ega. Ona va farzand munosabatlari, onaga hurmat masalalari bayoni berilgan qadim turkiy bitiktoshlarda va mumtoz yozma adabiyot namunalari, jumladan, Alisher Navoiy asarlarida uchrovchi pandnomalar hamda insoniy xarakterlar badiiy talqini zamondosh ijodkorlar tomonidan imkon qadar ijodiy o‘zlashtirildi. Ayni paytda, XX asr o‘zbek va jahon realistik adabiyotining hayotbaxsh an’analari ham ijodiy o‘zlashtirildi.

3. Mustaqillik yillarida yaratilgan “Dunyoning ishlari”, “Onaizorim”, “Quyoshim – enam” qissalari tarixiy mavzuning yangicha talqinlari ekani bilan e’tiborlidir. Bu turkumga mansub qissalarda onalar ijtimoiy-maishiy muammolar, hayot, oila tashvishlari fonida turfa rakurslardan poetik ifodalandi. Ona obrazi va uning ruhiy olami ham an’anaviy realistik uslubda, ham noan’anaviy modern uslubda teran aks ettirildi.

4. O‘tkir Hoshimov, Isajon Sulton, Guljahon Mardonova ijodida ona obrazining badiiy tadriji kuzatiladi. Bu hol har bir yozuvchining dunyoqarashi kengayib, ifoda uslubi uzluksiz rivojlanib, o‘sib, takomillashib borishi bilan bog‘liqlikda yuzaga chiqadi. Poetik mahorat bilan bog‘liq bunday tadrijiy siljishlar badiiy asarning: syujet, kompozitsiya, obrazlar ma’naviy-ruhiy olami, dramatizm, ifoda yo‘sini, bayon tarzi, poetik nutq uslubi singari deyarli barcha sathlarida u yoki bu darajada namoyon bo‘ldi.

5. “Dunyoning ishlari”, “Onaizorim”, “Quyoshim – enam” qissalari bosh qahramonlari ona obrazi ekani bois, barcha voqealar shu obraz atrofida kechadi. Bu esa xarakterni turfa rakurslardan ochish, kompozitsion yaxlitlikni ta’minlash, tizimlilikni yuzaga chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, muallif badiiy niyati, estetik idealidan kelib chiqqan holda har bir qissaning kompozitsion qurilishi o‘ziga xoslik kasb etgan. Kompozitsion unsurlarning to‘g‘ri, o‘z o‘rnida joylashtirilishi tahlilga tortilgan qissalarning o‘qishli bo‘lishi, jozibali chiqishiga asos bo‘lgan. Jumladan, O‘.Hoshimov qissa qurilishida kompozitsion unsurlardan me’yorida foydalanadi va badiiy voqealar tasviri hamda obrazlar tahlilida ko‘p so‘zlilik, tavsifiylikdan saqlanadi. I.Sulton kompozitsiya qurilishida peyzaj unsurlari orqali ramz va majozlarga ahamiyat qaratish bir qadar qabariq holda ko‘rinadi. Peyzaj qissada asar g‘oyasini, qahramonlar ruhiyatini ochuvchi muhim vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. G.Mardonova esa voqealar va obrazlar tasvirida ko‘proq tavsifiylikka beriladi va kitobxonni zeriktirib qo‘yadi.

6. “Dunyoning ishlari” va “Quyoshim – enam” qissalarida rivoya subyekti roviy-personaj ekanligi bilan o‘zaro mushtaraklik kasb etadi. Badiiy voqelik tafsilotlari mualliflar tilidan hikoya qilinadi. Roviy-personajlar qissa qahramonlari kabi faol harakat qilishadi. Shuning uchun aksariyat o‘rinlarda mualliflarning ruhiy holatlari, hayotiy xulosalari ham beriladi.

7. “Dunyoning ishlar” qissasida obrazlar tizimi kengroq bo‘lib, mahalla ahli, oila a’zolari, turli xarakterga ega ayollar, bolalar qamrab olinadi. Ularning suhbat-muloqotlari va dialoglari orqali Toshkent shahri aholisining madaniy-maishiy hayoti, turmush tarzi yoritilgan. “Onaizorim” qissasida uch avlod onasining hayot tarzi, kundalik uy yumushlari, hayot sinovlari aks ettirilgan. Qissada obraz darajasiga ko‘tarilgan o‘simliklar, hayvonlar, qushlar, shamol, suv, tuproq kabi detal-obrazlar ham borki, ular inson umrining ma’no-mohiyatini falsafiy yo‘sinda ochishga xizmat qildirgan.

8. Qissalarda tasvirlangan ona obrazlari o‘zining milliy va mental xarakteri bilan e’tiborni tortadi. Uch ijodkor qissalarida ham ona timsoli Sharq-islom ma’rifati va milliy qadriyatlarni chuqur egallagan, xalqimizning donishmand kayvonilari, ijtimoiy davr taloto‘mlaridan sabr-bardosh bilan o‘tgan matonatli ayollar sifatida namoyon bo‘lishadi. Binobarin, mazkur obrazlar o‘zining chuqur hayotiy asoslariga ega. Bu jihat mazkur asarlarga muayyan darajada avtobiografiklik xususiyatini ham bag‘ishlaydi. Ammo ularga umummilliy va umuminsoniy bo‘yoqlar singdirilganki, shu boisdan ham bu obrazlarni aniq prototiplar doirasida baholab bo‘lmaydi. G.Mardonova qissasi ayni shu jihatdan qisman oqsaydi.

9. I.Sulton “Onaizorim” qissasida qahramonlar obrazini milliy marosimlarimiz, urf-odatlarimiz fonida ochishga intilgan. Farg‘ona viloyatining urf-odatlari, to‘y-marosimlari va bu jarayonlarda onalarning his-tuyg‘ularini mohirona tarzda ochib bera olgan. G.Mardonovaning “Quyoshim – enam” qissasida esa Qashqadaryo vohasi onalariga xos fazilatlar, xalq udumlari, azaliy an’analari va tili vositasida ochilgan. Biroq adiba milliy qahramonni mahalliy kolorit fonida tasvirlash asnosida, uning nutqini individuallashtirishda mahalliy sheva unsurlarini ko‘p qo‘llash orqali o‘zbek adabiy tili me’yorlaridan sezilarli darajada chekingan.

10. O‘tkir Hoshimov, Isajon Sulton, Guljahon Mardonova qissalarida ona obrazini yaratishda milliy qissachilik an’analari bilan bir qatorda, jahon qissachiligi tajribalarini ijodiy o‘zlashtirishga ham diqqat qaratilgan. Ammo, milliy qissachiligimiz g‘oyaviy mazmunida Sharq-islom falsafasiga xos badiiy talqinlar dominantlik qiladi. Bu hol mustaqillik sharofati bilan yuzaga kelgan erkin, plyuralistik tafakkur imkoniyatlari tufayli milliy badiiy-estetik tafakkurimiz o‘z azaliy o‘zanlariga qaytayotganini ko‘rsatishi bilan alohida ahamiyatlidir.

**SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES AT ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE**

---

**ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE**

**ISABAEVA GULXAYO FARXOD KIZI**

# THE POETIC DEVELOPMENT OF THE MOTHER FIGURE IN UZBEK NOVELS OF THE INDEPENDENCE PERIOD
## (With examples from U. Hoshimov's "Such is Life" ("Dunyoning ishlari"), I. Sulton's "My Mother" ("Onaizorim"), and G.Mardonova's "My sun – My Mother" ("Quyoshim – enam")

**10.00.02 – Uzbek Literature (20th century Uzbek literature and Modern literary process)**

**DISSERTATION ABSTRACT**
**of the Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences**

**Tashkent – 2025**

**The theme of dissertation for doctor of philosophy (PhD) was registered by the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher Education, Science, and Innovation of the Republic of Uzbekistan under number B.2022.2.PhD/Fil2436.**

The dissertation has been carried out at the Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) is placed on the website of the Scientific Council (www.tsuull.uz) and Information-educational portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

| | |
|---|---|
| **Scientific supervisor:** | **Yakubov Islamjon Akhmedjanovich**<br>Doctor of Philological Sciences, Associate Professor |
| **Official opponents:** | **Meliev Suvonkul**<br>Doctor of Philological Sciences, Professor |
| | **Ulugov Abdulla Uzbekovich**<br>Doctor of Philological Sciences, Professor |
| **Leading organization:** | **The Tashkent State Pedagogical University named after Nizami** |

The defense of dissertation will take place on May 5, 2025 at $14^{00}$ at the meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. (Address: Yusuf Khos Hajib street, 103, Yakkasaray district, Tashkent city, 100100. Phone: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiyu-ni.uz)

The doctoral dissertation can be reviewed in the Information-Resource Centre of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (registration under № 347). Address: 100100, Yusuf Khos Hajib street, 103, Yakkasaray district, Tashkent city. Phone: (99871) 281-42-44); fax: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz.

The abstract of dissertation is distributed on 21 04 2025.

(Protocol at the register № 1 of 21 04 2025)

**H.A.Dadaboyev**
Chairman of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

**K.U.Pardayev**
Scientific Secretary of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

**N.A.Jabborov**
Chairman of the Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

## INTRODUCTION (abstract of the PhD thesis)

**The topicality of the dissertation.** It is acknowledged that the genre of the novella is undergoing a period of poetic renewal in world literary studies. The genre of the novella, based on the principles of evolutionary development and genre laws, is gaining stability and expanding in its ability to express various themes. The study of pressing issues such as character and imagery, literary tradition, creative succession, nationality, plot, compositional integrity, narrative subjects, character systems, hero psychology, artistic expression techniques, themes, and ideas has always been at the center of attention. Significant research has emerged regarding the genre's potential to represent real life. Since the symbol of the mother plays a leading role in the formation of artistic imagery, which rises from domestic life to society's life in any work, it shows that studying the initial sources of the theme is of paramount importance.

In world literary studies, the exploration of the plot, composition, world of characters, and the manifestation of the heroes' psychology in novellas is much broader in terms of poetic mastery. After all, the philosophical-aesthetic appearance of any artistic creation is considered the sole literary criterion that unites the essence of poetics. In the formula of an artistic work, the poetic phenomenon has been confirmed as a unique aesthetic law that stabilizes based on historical, social, cultural, and educational principles. Such works have made it possible to clarify theoretical issues such as the gradual development of novella writing, stages of development, comparative typology, and the writer's poetic mastery.

In Uzbek literary studies, the debates and scientific discussions about the poetics of the novella stand out for their intensity and diversity. This is because poetics is the systematic adaptation of literary laws that direct the parts of each work towards a single center. The essence of systematization is that the artistic work's complexity as a whole is of decisive importance. In our national literary studies, alongside historical novellas, contemporary novellas, including those by A.Kahhor, O.Yakubov, P.Qodirov, Kh.Dustmuhammad, N.Eshonkul, U.Hamdam, L.Burixon, and I.Sulton, have been studied to some extent. Existing research has explored the uniqueness of artistic expression methods, gradual development, the essence of poetic imagery and symbols, the world of characters, and the issues of creative mastery. Some works have been subjected to comparative analysis with the literature of brotherly nations, as well as Russian and world literature. During the years of independence in our country, as a component of the changes and renewal in the social-political, cultural-educational fields of our life, attention to artistic literature and literary studies among young people has also risen. The need to create the necessary environment and conditions to promote the rich history of our homeland, its unique culture, and national values, as well as to convey the achievements of world science and literature, has become a matter of state policy. In particular, attention to the role and place of the Mother and, in general, the sacred female figure in human life and society's development has increased. This is not without reason: "In every female figure in our homeland, we primarily see

the image of the great being – the Mother. Indeed, for us, they are primarily the sacred mother, the beloved homeland, the symbol of family, the endless source of love, kindness, and strength... The family is the fortress of love and happiness. As long as there is family, there is the priceless blessing of children, human dignity, and spirituality. Family happiness is the greatest happiness. If a woman is happy, the family and society, of course, will be happy as well"[22]. Therefore, researching the gradual development of the artistic interpretations of the Mother figure, which has always been a source of inspiration for creative individuals, the artistic embodiment of the authors' creative intentions, the system of images, as well as the interpretation of national values, national spirit, and national identity in their entirety, is crucial. Through the interpretation of specific issues in works by various authors, the subject's relevance is determined by highlighting certain national peculiarities of Uzbek literature.

The Presidential Decrees of the Republic of Uzbekistan, namely PF-4797 of May 13, 2016, "On the establishment of the Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature", PF-6108 of November 6, 2020, "On measures for the development of education, upbringing, and science in Uzbekistan's new development era", PF-60 of January 28, 2022, "On the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026", PQ-3271 of September 13, 2017, "On the program of comprehensive measures for the development of the publishing and distribution system of books, promoting reading culture, and increasing the culture of book reading", as well as other relevant regulatory-legal documents, define the tasks for which this dissertation research serves to some extent.

**Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic.** The dissertation was carried out within the framework of priority focus of the development of science and technology of the republic I. "Formation of the system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state and the ways of their implementation".

**The degree to which the problem has been studied.** The role, place, and gradual development of the Mother figure in literary works, as well as its embodiment as a symbol of universal human values in both world and Uzbek literary studies, have been studied in various research works. Specifically, in Uzbek literature, the Mother figure has been explored in its national, traditional, and distinctive poetic expressions. However, the absence of specific scientific research on the theoretical issue presented in the dissertation calls for a more comprehensive study of the topic.

Over the past years, novellas have been thoroughly studied in terms of their genre characteristics and artistic qualities. For example, the articles[23], scientific

[22] Мирзиёев Ш.М. Муқаддас она, азиз ватан, оила тимсоли, битмас-туганмас меҳр, эзгулик ва куч-ғайрат манбаи. Халқаро хотин-қизлар кунига бағишланган нутқи // Халқ сўзи, 2021 йил. – № 48 (7828).

[23] Шарафиддинов О. Она // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1985. 5 март; Мирвалиев С. Она ҳақида қўшиқ // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1982. 3 март; Норматов У. Тақдирлар романи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1985. 27 ноябрь; Шукуров Н. Дунёнинг ишлари // Гулистон.

works[24], and theses[25] of various generations of literary scholars such as S.Ahmad, I.Sulton, M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, S.Mirvaliyev, U.Normatov, N.Shukurov, A.Rasulov, H.Karimov, O.Duysenbayev, U.Jo‘raqulov, N.Jabborov, B.Karimov, A.Ulug‘ov, I.Yoqubov, D.Xoldorov, M.Sultonova, U.Rasulova, U.Nosirov, G.Imomova, M.Imomkarimova, N.Tosheva, Y.Eshmatova, F.Burxonova, and others are among them.

In world literary studies, the research of literary scholars and aestheticians such as L.P.Potapov, N.L.Mirkushina, M.V.Meleksetyan, A.A.Khalaf, R.M.Shofakirova, Z.S.Kayumova, M.Arnaudov, R.Arneym, M.Berdyayev, L.S.Vygotsky, has specifically studied the artistic interpretation of the female and mother figure and its role in the system of images. Moreover, issues such as the psychology of artistic creation, the mastery of the creator, and the principles and methods of studying artistic images and their nature have been explored[26].

The researcher’s approach methods are closely related to categorical concepts such as the creator’s worldview, national tradition, space and time, and continuity. This is because the critique of the image not only involves literary tradition and genealogical connections but also the author’s self-reflection processes, the mood and states at the time the work is being written, and particularly the sense of indebtedness the writer feels towards the honorable spirit of his late mother when creating the Mother figure in the novellas.

---

– Тошкент, 1982. №3. – Б. 16; Султонова М. Оила ва ёзувчи позицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. №5. – Б. 32.

[24] Улуғов А. Қиссачилигимиз қирралари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991; Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Адабиёт, 2021; Дуйсенбаев О. Ўткир Ҳошимов ижодида она образи. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011; Имомкаримова М. Ўткир Ҳошимов асарларида миллий қадриятлар талқини. Филол. фан. номз. … дисс. – Тошкент, 2004; Имомова Г. Типик миллий характер яратишда бадиий нутқнинг роли: Филол. фан. номз. … дисс. – Тошкент, 1994; Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Филол. фан. д-ри … дисс. – Тошкент, 2018; Каримов Б. XX аср ўзбек адабиётшунослигида талқин муаммоси (қодирийшунослик мисолида): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2001; Тошева Н. Ҳозирги ўзбек насрида фольклорга оид воситаларнинг поэтик функцияси (Исажон Султон насри мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. … дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол. фан. д-ри ... дисс.– Тошкент, 2020; Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадиий услуб муаммоси (Шойим Бўтаев ва Назар Эшонқул қиссалари мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. … дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Бурханова Ф. Муаллиф адабий-эстетик қарашлари ва ижодий параллелизм (Назар Эшонқул ва Улуғбек Ҳамдам ижоди мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. …дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Лутфиддинова Х. Ёзувчининг эстетик идеали ва аёллар образи (“Ўткан кунлар” ва “Кеча ва кундуз” романлари асосида). Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994; Эшматова Ю. Истиқлол даври ўзбек қиссачилигида аёл руҳиятининг бадиий талқини. Филол. фан. б. фалс. док. …дисс. – Тошкент, 2020.

[25] Саид Аҳмад. Ижод ва жасорат. (Ўткир Ҳошимов ҳақида). Йўқотганларим ва топганларим. Хотиралар. Адабий ўйлар. – Тошкент: Шарқ. – Б. 226–232; Носиров У. Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 76; Расулов А. Ардоқли адиб. – Тошкент: Шарқ, 2001; Каримов Ҳ. Ўткир Ҳошимов. – Тошкент: Маънавият, 1998.

[26] Потапов Л.П. Умай-божество древних тюрков // Тюркологический сборник, Восточная литература, – М., 1972; Миркушина Н.Л. Образ женщины в русской религиозный философии и культурной традиции конца XIX – начало XX века: автореф. канд. философ. дисс. – Астрахань, 2014; Мелексетян М.В. Образ матери в русской поэзии XX века: А.Блок, А.Ахматова, А.Твардовский. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2009; Шофакирова Р.М. Образ женщины-матери в “Шахнаме” Фирдоуси. Дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2004; Каюмова З.С. Образ женщины в переводе “Тафсира Табари” и его отражение в произведениях персидско-таджикской поэзии X-XII веков. Дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2023; Халаф А.А. Образ женщины в Арабским исскустве // Вестник ВГУ. Серия филология и журналистика. 2012. №1; Арнаудов М. Психология литературного творчества. – М.: Прогресс, 1970; Арнхейм Р. Новые очерки по психологии искусства. – М.: Прометей, 1994; Бердяев Н. Самопознание. – М.: Книга, 1991; Выготский Л.С. Психология искусства. – М.: Феникс, 1998.

